O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor v.v.b
_____A.Berdibaev
“_28_”- _oktyabr_ 2026 jil

10.00.06 - ”QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK” IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRUVCHILAR UCHUN “MUTAXASSISLIK FANI” DASTURI

NUKUS – 2026

Tuzuvchilar:

p.f.n., dos. D.Dj.Mamirbaeva, Nukus davlat pedagogika instituti

PhD., dos. G.A.Bekbergenova, Nukus davlat pedagogika instituti

Takrizchilar:

PhD. A,Xudaybergenov, Nukus davlat pedagogika instituti

PhD. Dotsent J. Seytjanov, Qoraqalpoq davlat universiteti

KIRISH

Mamlakatimiz ravnaqi, ta’lim soxasi taraqqiyoti va chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslikning ham o‘z maqsadi va vazifalari bor. Bugungi kunda til va adabiyot xalqlarning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy integratsiyasi uchun asosiy vosita vazifasini o‘taydi. Shunday ekan, yurtimiz iqtisodining gullab yashnashida mazkur soxalarning alohida o‘rni bor. Yuqori malakali ilmiy- pedagogik kadrlarni tayyorlashda tayanch doktorantlar uchun yaratilgan ushbu dastur chet tillari bo‘yicha nazariy bilimga ega bo‘lish va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish uchun katta ahamiyatga egadir.

Mazkur dastur qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik mutahassisligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun mo‘ljallangan, shuningdek, xozirgi zamon ingliz va ona tillari qiyosiy tipologiyasining fundamental muammolariga va tipologik tadqiqotlarning zamonaviy yo‘nalishlariga, qiyosiy adabiyotshunoslik hamda tarjimashunoslikning dolzarb muammolariga qaratilgan.

FANNING MAQSADI VA VAZIFALARI

10.00.06-qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha doktoranturaga kiruvchilar ushbu yo‘nalishda qiyosiy adabiyotshunoslik, turli tillarning rivojlanishi, uning dialektik ko‘rinishlari, leksik, grammatik, fonetik va frazeologik ko‘rinishlari, tarjimashunoslikning o‘ziga xos jixatlari haqidagi bilimlar bilan tanishadilar. Til haqida obyektiv muloxaza yuritish, uning mazmuniy estetik jixatini ham nazarda tutgan holda nutqiy ifodaning ta’sirchanligini yuzaga keltiradigan lisoniy vositalarning tabiatini, ularning badiiy nutq tarkibida kasb etadigan qo‘shimcha ma’no va ma’no belgilari hamda vazifalarini ham tahlil qilish orqali mukammal ilmiy hulosalar chiqaradilar.

TALABGORLAR BILIMLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Tayanch doktorantlar:

- Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik fanlari va ingliz tili va uning rivojlanish bosqichlarini bilishi va tahlil qila olish;
- ingliz, rus, uzbek, qoraqalpoq va boshqa milliy adabiyotlardagi yo‘nalish va oqimlarning evolyutsion bosqichlarini qiyoslay olishi;
- muayyan mamlakat adabiyoti taraqqiyoti tarixi jarayonlar bilan bog‘liqligini tushunish;
- turli davrga va turli milliy adabiyotlarga tegishli bo‘lgan yirik adabiyot vakillari hayoti, ijodiy yo‘li va asarlari bilan tanishish, tahlil qilish va ularning badiiy ahamiyatini tadqiq etishi;
- o‘rganilayotgan adabiyotning milliy va madaniy xususiyatlarini farqlash, milliy adabiyotning jahon adabiyoti bilan o‘zaro bog‘liqligi haqidagi tushunchalarni va umumjahon adabiy-tarixi muammolarini qiyoslay olishi;
- ingliz tili paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari, uning dialektik ko‘rinishlarining o‘ziga hosliklari haqida bilimga ega bo‘lishi;
- til tizimi, tuzilishi, tillarning o‘zaro aloqasi, tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik hodisalari, fonetik va frazeologik ko‘rinishlarini qiyosiy tadqiq eta olishi;
- tillar integratsiyasi va differensifsiyasi, interlingvistika, tilshunoslikda qiyosiy-tarixi metod, tillarning tipologik tasnifi, til tarixi va nazariyasi to‘g‘risida keng bilimni egallay olish, dunyo tillarining umumiy va xususiy qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi, tilshunoslik tarixi, tilshunoslik maktablari, zamonaviy tilshunoslik masalalarini va tilshunoslik metodlarini bilishi;
- chet tilini o‘rganish amaliyotida nazariy bilimlarni qo‘llash, tilshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlarga kasbiy nuqtai nazardan qarash, dunyo tilshunosligida ro‘y berayotgan jarayonlarni o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazardan tahlil qilish, tillarning umumiy va xususiy belgilari haqidagi tushunchalarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lish, tillarni qiyoslash sohasidagi nazariy bilimlarini ko‘rsatish va chet tillar tuzilmalaridagi o‘xshashlik va farqlarini o‘zlashtirishi bilan birga to‘g‘ri foydalanish malakasiga ega bo‘lishi,
- qiyosiy tilshunoslik fundamental masalalari bo‘yicha nazariy bilim asoslarini bilish, turli konsepsiyalarni tanqidiy baholash va ularni qiyoslanayotgan tillarning materiali asosida tahlil qilish, qiyosiy tipologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari va faktorlari, tipologik tadqiqotlar tarixi va metodlari; tipologik tadqiqotlarning prinsiplarini bilish, turli yo‘nalish maktablarda qiyosiy tilshunoslik muammolarning talqin qilinishi, qiyosiy tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi va ularning qiyosiy tipologiyaga ta’sir qilish yo‘llarini aniqlash, qiyosiy tilshunoslik fanining metodologiyasini qo‘llay olish ko‘nikmalarini hosil qilish,
- qiyosiy tilshunoslik fani bo‘yicha yangi yo‘nalishlarning mavjudligi va ularning talqini bilish, tarjima metodlarini bilish va amaliyetda qo‘llayolish, O‘zbekistonda va

xorijiy davlatlarda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash va lingvistik adabiyotlardan samarali foydalana olishi lozim.

10.00.06-QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUTAHASSISLIGI BO‘YICHA MAVZULAR

Qiyosiy-tarixi uslub tushunchasining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi.

Qiyosiy-tarixi jarayonlarning uyg‘unligi. V.M. Jirmunskiy, N. I. Konrad, I.G.Neupokoyeva, D. Dyurishin. va A.N. Veselovskiylarning qiyosiy adabiyotshunoslik fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi. Mifologik maktabning taraqqiyoti va uni qiyosiy-tarixi uslubga bo‘lgan ta’siri (Yakob va Vilgelm Grimm, A.Kun, M.Myuller, F.I.Buslayev, A.N.Afanasev, O.F.Miller). Turli millat afsonalari umumiyligi. Madaniy-tarixi maktab asoschilarini qiyosiy - tarixi uslubga bo‘lgan ta’siri (I.Ten, V.Sherer, G.Lanson, G.Brandes, J.Lyuis, A.N.Pipin, N.S.Tixonravov). Qiyosiy -tarixi uslubni adabiyotlararo jarayonda rivoji. Tarixi-tipologik konvergensiya. O‘rta asr va Uyg‘onish davri Garb va Shark adabiyotining qiyosiy tahlili, taraqqiyot yo‘nalishlari. Og‘zaki xalq ijodining adabiyotshunoslik rivojidagi o‘rni. Og‘zaki xalq ijodi janrlari. Uyg‘onish davri adabiyotining ahamiyati.

Uyg‘onish davri adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi. Sinxron va diaxron ta’sirlar. Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiy g‘oyalarga ta’siri. Ma’rifatparvarlik adabiyoti mutafakkirlari Vinkelman. Adabiyotshunoslik asoschisi - Klod Gelvetsiya va Iogann Iogann Gerder (1744-1803).

Adabiyotshunoslikning tarixi fan sifatida taraqqiyoti. Gegelning (1770-1832) hayotni dialektik anglash konsepsiyasi, san’atda ma’no va shakl, karama karshiliklar qonuniyatiga munosabati. Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiy g‘oyalarga ta’siri. XIX asr mutafakkirlari pozitsiyasining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili. Gegelning adabiyotshunoslik taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi va g‘oyalari ahamiyati. Ogyusta Kontning (1798-1857) ijobiy (pozitiv) falsafasi. Induktiv -deduktiv umumlashtirish tamoili. Metafizik qarashlar. Germaniya adabiyotshunosligida (Yakob va Vilgelm Grimm) pozitivizm taraqqiyoti. Formalizm va strukturalizm rivoji. T.Benfey g‘oyalari va o‘zlashtirish nazariyasi. AKSH (R.Uellek. V.Friderix) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Milliy, mintaqaviy va jahon adabiyoti tushunchalari. Adabiy oqimlar va yo‘nalishlar.

Adabiyot taraqqiyotining ilk bosqichlarida adabiy oqimlar. Sentimentalizm va romantizm adabiy yo‘nalishlari xususiyatlari. Realizmning adabiy yo‘nalishlari. Adabiyot, modernizm va postmodernizm. Postmodernizm konsepsiyasining shakllanishi. Postmodernizm va ―O‘zga so‘z muammosi. falsafiy tushunchalar. Shakl va ma’no o‘rtasidagi munosabat. Asarning «ichki shakl» va «tashqi shakl»i va uning san’at va adabiyotda mazmuni. San’at hayotni anglash vositasi. San’at - borliqni va ijtimoiy ong

taraqqiyoti omili. Badiiy ijodda ma’no va shakl. Asarning obyektiv g‘oyasi va muallif g‘oyasi. Xarakter, kompozitsiya va syujet. Badiiy tasvirning estetik ahamiyati. Tasvirning hayotiyligi va xalqchilligi.

Badiiy adabiyot tilining o‘ziga xosligi. Yozuvchi tilining manbalari. Til madaniyati taraqqiyotida yozuvchining roli. Badiiy asarning lisoniy xususiyatlari. Badiiy asarlarda adabiyotlararo dialogizm masalasi. Muallif obrazining badiiy asarda aks etishi. So‘zlarning ko‘chma ma’nosi (troplar va ularning turlari). Intonatsiya va sintaksis. Lingvokulturologik aspektda so‘zlarning ko‘p ma’noliligi. Chernishevskiyning adabiyotshunoslik taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi va g‘oyalari ahamiyati. Germaniya (M.Kesting, K.Vays, K.Hamburger) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Fransiya (Klod Pishua, Anri Granjar) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Slovakiya (D.Dyurishin), Rossiya (A.N.Veselovskiy) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Rossiya (A.N.Veselovskiy) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati.

Tilshunoslikda germanistika va slavistika. Sanskrit va F. Bopp qiyosiy grammatikasi. V. Gumboldt falsafasi. A. Shleyxer ta’limoti. G. Shteyntal ta’limotida til va xalq psixologiyasi. Boduen de Kurtene va F. De Sossyur ta’limotida til sistemasi. Bilish usullari va tilshunoslik metodlari. Tilni o‘rganish metodologiyasi va metodlari. Tavsifiy metod. Qiyosiy-tarixi metod. Struktur metod va uning yo‘nalishlari. Funksional lingvistika. Deskriptiv lingvistikaning tahlil metodlari. Distributiv tahlil metodi. Transformatsiya metodi. Tasviriy metodning asosiy usullari. Distributiv metod. Paradigma usullari va paradigmatik metodika. Oppozitsiya usuli. Semantiq maydon usuli. Pozitsion usullar. O‘zgartirishlar usuli va transformatsion metodika. Statistik usullar. Qiyosiy tilshunoslikning paydo bo‘lish sabablari. Qiyosiy metodning universallik xususiyati.

Lingvistik va nolingvistik tipologiya. Qiyosiy tipologiyada kategoriyalash muammolari. Tipologik kategoriyalar. Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi. Turli til sistemalarini qiyosiy o‘rganishning zamonaviy metodlari. Tilshunoslikda yangi yo‘nalishlarning mavjudligi va ularning qiyosiy tipologiyada qo‘llanilishi. Qiyosiy tipologiyaning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari va faktorlari. Tillarning geneologik tasnifi, tillar qarindoshligi haqida ma’lumot. Qiyosiy tipologiyaning asosiy parametrlari. Izomorfizm va allomorfizm xususiyatlari. Qiyoslashda sinxron va diaxron yondashish. Tillararo va bir til ichidagi qiyoslash xususiyatlari. Qiyosiy tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati. Barcha til tizimlari uchun mushtarak bo‘lgan belgilarni ifodalashdagi muvofiklik va nomuvofiklik.

Tilshunoslikda «shakldan ma’noga» va ―ma’nodan shaklga tamoillarning qo‘llanilishi. Lingvistik tushunchalarni tilning turli yaruslarining o‘lchov birliklari konstituyentlari orqali ifodalanishi. Turli til sistemalarini qiyosiy o‘rganishning zamonaviy metodlari. Grammatik kategoriya haqida ta’limot. Grammatik va mantiqiy kategoriyalar o‘rtasidagi mutanosiblik. Tushuncha kategoriyalar. Funksional-semantiq kategoriyalar.

Grammatik-leksik maydon. Tipologik ma’no va tipologik forma. Tipologik kategoriyaning tillararo, yaruslararo va so‘z turkumlariaro xususiyatlari. Tipologik kategoriyalarning ifodalanishdagi mazmun va ifoda planlari birliklarining tillararo aloqasi. Ifoda planidagi til tizimi o‘lchov birliklarining tillararo adekvatligi va adekvat emasligi, ularning yaruslararo sinonimligi, ularning taskonomik masalalari. Tilning leksik satxini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari. Leksikani tizim sifatida karalishi va tipologik yondashish imkoniyatlari.

Tarjima jarayonining bosqichlari. Tarjimada leksik muammolar. Tarjima tarixining nazariy masalalari. Jahon tarjimachiligida tajriba maktablari. Tarjimaning grammatik masalalari. Tarjimaning stilistik masalalari. Tarjimada lingvistik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondoshuvning ahamiyati. Tarjima va leksikografiya. Tarjimada leksik va grammatik transformatsiyalarning qo‘llanilishi. Semantiq va stilistik ekvivalentlik.

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yhati: Asosiy adabiyotlar:

1. Comparative literature in the age of multiculturalism. Edited by Carles Bernheimer. The John Hopkins University Press. London 1995
2. Основы сравнительного и сопоставительного литературоведения: учеб. пособ. / Казан. гос. ун-т, Филол. фак., Каф. сопостав. филол. и межкультур. коммуника - ции; авт.-сост. В.Р.Аминева; науч. ред. Д.Ф.Загидуллина.- Казань: Казан. гос. унт, 2007. - 480 с.
3. Шайтанов И.О. Компаративистика и/или поэтика: Английские сюжеты глазами исторической поэтикиМ.: РГГУ, 2010. 656 с.
4. Гринцер П.А. Эпохи взаимодействиялитератур Востока и Запада. Научное издание. М.: Российск. гос. гуманит. ун-т, 1997. 51 с.
5. Селитрина Т.Л. Преемственность литературного развития и взаимодействие литератур. М.: Высшая школа, 2009.
6. Теоретические основы290 с.сравнительного и сопоставительного итературоведения. Учебное пособие. Казань: Казан. ун-т, 2014.- 105 стр
7. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. - М.: Просвещение, 1990.
8. Абдуазизов А.А. Элементы общей и сравнительно -типологической фонологии.- Т.: Фан, 1981.
9. Buranov J. Sravnitelnaya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazikov. - M.: Visshaya shkola, 1983.
10. Buronov J. Ingliz va uzbek tillari qiyosiy grammatikasi. - T.: Ukituvchi, 1973.
11. Кодухов В.И. Общее языкознание. - М., 2009.
12. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. -Т.: Фан, 2005.

13. Юсупов У.К. Проблемы сопоставительной лингвистики. - Т.: Фан, 2007.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Gale Contextual Encyclopedia of American Literature. 2009, Gale. USA
2. Oxford companion to English literature. Margaret Drabble. Oxford University press. 2000.
3. Claudio Guillen. The Challenge of Comparative Literature.1993, Harvard University Press. England
4. Shunqing Cao. The Variation Theory of Comparative Literature. Ghuan University China. Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2013. Theories of Comparative Literature - South Valley University
5. Погребная Я.В. Сравнительно-историческое литературоведение. Учебное пособие / - 2-е изд., стереотип. - М. : ФЛИНТА, 2011. - 84 с. 6.Гиленсон Б.А. История зарубежной литературы конца 19 начала 20 века. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. - М.: Издательский центр «Академия», 2008. — 480 с
6. Кутафина Ю. Н. Современный зарубежный роман XX века: особенности развития: учебное пособие. - Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2007. - 101с.
7. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. 1979.
8. Веселовский.А.Н. Сравнительное литературоведение[1939-1940]; Литературные течения как явление международное [1867]
9. Александр Дима. Принципы сравнительного литературоведения. - М., 1977.
10. Гринцер П.А. Сравнительное литературоведение и санскритская поэтика. - М., 2013.
11. Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А.М. Иностранные языки в современном мире: эволюция методики обучения. - Т.: Фан, 2000.
12. Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А.М. Язык и общество. - Т.: Фан, 2002.
13. Борисова И.Ф., Имяминова Ш.С. Таржима назарияси ва амалиёти. - Тошкент. 2005.
14. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Курс лекций по английской филологии. - Тамбов, 2001.
15. Бондарко А.В. Сопоставительная лингвистика и обучение неродному языку. - М.: Наука, 1987.
16. Вежбицка А. Семантические универсалии и описание языков. - М., 1999.
17. Гак В.Г. Сопоставительная прагматика // Филологические науки. - №3.
18. Грамматика общая и рациональная Пор -Рояля. - М.: Прогресс, 1990.
19. Журинская М.И. Лингвистическая типология. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. - М.: Наука, 1972.
20. Гулыга Е.В., Шендельс Е.И. Грамматико-лексические поля в современном немецком языке. - М.: Просвещение, 1969.

21. Когнитивные и коммуникативные аспекты английской лексики. - М., 1990.
22. Колшанский Г.В. Проблема универсалий языка // Общее языкознание. Внутренняя структура языка. - М.: Наука, 1972.
23. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. - М.: 2004.
24. Мусаев К. Таржима назарияси асослари. Тошкент. 2005.
25. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 23. Когнитивные аспекты языка. - М.: Прогресс, 1980.
26. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. - Минск, 2004.
27. Принципы типологического анализа языков различного строя. М:Наука, 1972.
28. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах. «Сангзор» - 2006.
29. Селиверстова О.Н. Контрастивная синтаксическая семантика. Опыт описания. - М.:Наука, 1990.
30. Семантика и категоризация. - М.:Наука, 1991.
31. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. - Тошкент. 1978.
32. Ғафуров И. Таржимонлик мутахассислигига кириш. - Тошкент. 2008.
33. Fillmore Charles J. Remarks on Contrastive Pragmatics //In - J.Fisiak (ed.), Contrastive Linguistics- Prospects and Problems. - Padstow, 1984.

Интернет сайтлар

1. http://teoria-practica.rU/rus/files/arhiv_zhurnala/2011/6/filologiya/galay.pdf
2. http ://www.uz-translations.net
3. http://www.booksbooksbooks.ru
4. http://www.literature-online
5. http ://www.twirpx.com/file/546814/
6. http://download.springer.com/static/pdf/909/bfm%253A978-3-642-34277-6%252F1.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik institute 10.00.06 – “Qiyosiy adabiyotshunoslik, qiosiy til va tarjimashunoslik” mutahassisligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihon
SAVOLLARI

I. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

1. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining predmeti va obyekti
2. Qiyosiy adabiyotshunoslikning ilmiy-ma’naviy asoslari
3. Qiyosiy adabiyotshunoslikning shakllanish bosqichlari
4. Adabiyotlararo aloqalar nazariyasining mohiyati
5. Qiyosiy tahlilning metodologik asoslari
6. Tipologik, genealogik va kontakt aloqalar o‘rtasidagi farqlar
7. Adabiyotshunoslikda “adabiy ta’sir” tushunchasining mazmuni
8. Qiyosiy adabiyotshunoslikda intertekstual yondashuvning o‘rni
9. A.N. Veselovskiy va R. Vellekning qiyosiy tahlilga qo‘shgan hissasi

10. Qiyosiy adabiyotshunoslikda Geyne va Pushkin ijodini solishtirish imkoniyatlari
11. Qiyosiy adabiyotshunoslikda “motiv” va “syujet” kategoriyalarining o‘rni
12. Milliy va jahon adabiyoti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir masalalari
13. Adabiy tipologiya va adabiy genezis tushunchalari
14. Sharq va G‘arb adabiyoti o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar
15. O‘zbek va rus adabiyotlari o‘rtasidagi adabiy aloqalar tarixi
16. Qiyosiy adabiyotshunoslikda mifologik tahlilning roli
17. Qiyosiy adabiyotshunoslikda qahramon obrazini o‘rganish metodlari
18. Adabiyotlararo ta’sir va tipologik o‘xshashlikning farqi
19. Qiyosiy tahlilda an’ana va yangilik muammosi
20. Qiyosiy adabiyotshunoslikda “adabiy jarayon” tushunchasi
21. Adabiyotshunoslikda “milliylik” va “umuminsoniylik” nisbatini izohlang
22. Qiyosiy adabiyotshunoslikda poetika muammosi
23. Qiyosiy tahlilda janrlararo bog‘lanishlarni tahlil qilish usullari
24. Qiyosiy adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi aloqalar
25. Adabiyotshunoslikda “madaniy transfer” tushunchasini izohlang
26. Qiyosiy tahlilda estetik kategoriya va badiiy ideal masalasi
27. Qiyosiy adabiyotshunoslikda “matnlararo dialog” nazariyasi
28. Qiyosiy adabiyotshunoslikda “konsept” tushunchasi
29. Qiyosiy adabiyotshunoslikda folklor manbalarining o‘rni
30. Qiyosiy adabiyotshunoslikda modernizm va postmodernizm talqinlari
31. O‘zbek adabiyotida G‘arb adabiyoti ta’sirining nazariy tahlili
32. Sharq adabiyotining G‘arb adabiyotiga ta’sirini ko‘rsating
33. Qiyosiy adabiyotshunoslikda feministik yondashuvning o‘rni
34. Adabiyotlarda arxetip nazariyasining qo‘llanilishi
35. Qiyosiy adabiyotshunoslikda madaniyatlararo dialog masalasi
36. Adabiyotlararo qarindoshlik (genealogiya) tushunchasi
37. Qiyosiy adabiyotshunoslikda stilistika muammolari
38. Qiyosiy adabiyotshunoslik va semiotika o‘rtasidagi aloqalar
39. Qiyosiy adabiyotshunoslikda badiiy tafakko‘rning milliy xususiyatlari
40. Qiyosiy adabiyotshunoslikda badiiy tarjimaning o‘rni
41. Qiyosiy adabiyotshunoslikda global adabiy jarayonni o‘rganish masalalari
42. Qiyosiy adabiyotshunoslikda zamonaviy metodologiyalar (strukturalizm, dekonstruksiya)
43. Adabiyotlararo ta’sirda madaniy kontekstning o‘rni
44. Qiyosiy adabiyotshunoslikda “obrazlar paradigmasi” tushunchasi
45. Milliy adabiy maktablar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir
46. Qiyosiy adabiyotshunoslikda qiyosiy poetika tushunchasi
47. Qiyosiy adabiyotshunoslikda zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlari
48. Qiyosiy adabiyotshunoslikda qahramon konsepsiyasi

49. Adabiy ta’sir va iqtibosning nazariy asoslari
50. Qiyosiy adabiyotshunoslikda “tarjima – qiyosiy vosita” sifatida

III. TARJIMASHUNOSLIK

71. Tarjimashunoslik fanining predmeti va vazifalari
72. Tarjimaning nazariy asoslari va ilmiy tarmoqlari
73. Tarjimada ekvivalentlik tushunchasi
74. Tarjima jarayonining bosqichlari.
75. Tarjimada intertekstual yondashuvning o‘rni.
76. Tarjimada “madaniy kontekst” muammosi.
77. A.E. Nida va Y. Kettford tarjima nazariyalarini taqqoslang.
78. Tarjimada pragmatik omillar.
79. Tarjimada “so‘zma-so‘z” va “mazmunan” yondashuv farqlari.
80. Adebiy tarjimada stil va uslub muammolari.
81. Tarjima va milliy madaniyat aloqasi.
82. Tarjimada lisoniy ekvivalentlikni ta’minlash usullari.
83. Tarjimashunoslikda semiotik yondashuv.
84. Tarjima jarayonida kompyuter texnologiyalarining roli.
85. Mashina tarjimasi nazariyasining asosiy tamoyillari.
86. Tarjimashunoslikda kognitiv va kommunikativ yondashuv.
87. Tarjima tanqidi nazariyasining asosiy tamoyillari.
88. Tarjima jarayonida kreativlikning o‘rni.
89. Tarjimashunoslikda gender aspektlari.
90. Tarjima jarayonida etik me’yorlar.
91. Zamonaviy tarjima nazariyasining shakllanish bosqichlarini tushuntiring.
92. Strukturalistik yondashuv va tarjima jarayonidagi o‘rni.
93. Tarjimashunoslikda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari.
94. A.E. Nida tarjima nazariyasining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
95. Y. Kettfordning tarjima nazariyasiga qo‘shgan hissasini izohlang.
96. I. Levining “ijodiy tarjima” haqidagi nazariy qarashlarini tahlil qiling.
97. P. Nyumarkning tarjima nazariyasi asoslari va ularning amaliy ahamiyati.
98. Kognitiv tarjima nazariyasining shakllanishi va mohiyati.
99. Dekonstruktiv yondashuv va postmodern tarjima nazariyalarining farqi.
100. Tarjima jarayonini semiotik tizim sifatida izohlash.
101. Tarjimada dinamik va formal ekvivalentlik o‘rtasidagi farq.
102. Zamonaviy tarjima nazariyalarida “konseptual izomorfizm” tushunchasi.
103. Tarjima jarayonida “verbal va noverbal” belgilarni tahlil qiling.
104. Tarjima nazariyalarida “domestikatsiya” va “foreignizatsiya” strategiyalari.
105. Tarjima nazariyasida “konnotatsiya” va “denotatsiya”ning o‘rni.
106. Zamonaviy tarjima nazariyalarida diskursiv yondashuvning ahamiyati.

107. Tarjimashunoslikda “interpretativ model”ning nazariy asoslari.
108. Tarjima jarayonida semantiq o‘zgarishlarni nazariy tushuntirish.
109. Tarjima jarayonini psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qiling.
110. Tarjima nazariyalarida kontekstual tahlilning roli.
112. Tarjima va til o‘zgaruvchanligi o‘rtasidagi nazariy bog‘liqlik.
113. Tarjima nazariyalarida madaniy moslashuv jarayonining o‘rni.
114. Tarjima nazariyasida “verbalizatsiya” tushunchasining mohiyati.
115. Tarjima jarayonida lisoniy ierarxiyalarni tahlil qilish usullari.
116. Tarjima nazariyalarining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari.
117. Madaniyatlararo muvofiqlik tushunchasini tarjima nazariyasi kontekstida izohlang.
118. Tarjimada madaniyatshunoslik yondashuvining o‘rni.
119. Madaniy konnotatsiyalarni tarjimada ifodalash muammosi.
120. Tarjima jarayonida “milliy kolorit”ni saqlashning nazariy asoslari.
121. Tarjimada madaniy uzatish strategiyalarini tahlil qiling.
122. Tarjimada madaniyatlararo kommunikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari.
123. Madaniyatlararo muvofiqlikda pragmatik omillarning o‘rni.
124. Tarjimada “madaniy kod” tushunchasining mazmuni.
125. Tarjimada realiyalarni uzatish muammosining nazariy asoslari.
126. Interkultural tarjimada “transkulturalizm” yondashuvi.
127. Madaniyatlararo muvofiqlikni ta’minlashda tarjimonning roli.
128. Tarjimada milliy-madaniy metaforalarni uzatish strategiyalari.
129. Tarjimada intertekstual madaniy bog‘lanishlarni tahlil qiling.
130. Madaniyatlararo tafovutlar va tarjima xatoliklari o‘rtasidagi bog‘liqlik.
131. Tarjimada madaniy identifikatsiya va o‘zgalik (alterity) masalasi.
132. Madaniyatlararo tarjimada “diskursiv moslik” tushunchasi.
133. Tarjimada kontekstual madaniy kompetensiyaning o‘rni.
134. Madaniyatlararo muvofiqlikni ta’minlash usullarini tahlil qiling.
135. Tarjimada madaniy mediatsiya (vositachilik) jarayoni.
136. Interkultural tarjimada madaniyatshunoslik va lingvokulturologiya aloqasi.
137. Tarjimada madaniy stereotiplarni bartaraf etish yo‘llari.
138. Madaniyatlararo tarjimada pragmatik kontekstning o‘rni.
139. Tarjimada madaniy ko‘chirish (transfer) strategiyalarini izohlang.
140. Madaniyatlararo tarjimada konnotativ ekvivalentlik muammosi.
141. Madaniyatlararo moslikning tarjima sifatiga ta’siri.
142. Mashina tarjimasi nazariyasining shakllanish tarixi.
143. Mashina tarjimasi va sun’iy intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlik.
144. Mashina tarjimasida grammatik tahlilning o‘rni.
145. Statik va neyron tarmoqli tarjima tizimlarini taqqoslang.
146. Mashina tarjimasida semantiq aniqlik muammosi.

147. Mashina tarjimasida kontekstni qayta ishlash mexanizmi.
148. Mashina tarjimasida korpus lingvistikasi ahamiyati.
149. Mashina tarjimasi tizimlarida “post-editing” jarayonining roli.
150. Mashina tarjimasi nazariyasida pragmatik xatoliklar tahlili.
151. Mashina tarjimasida terminologik aniqlikni ta’minlash muammosi.
152. Mashina tarjimasi tizimlarining lingvistik chegaralari.
153. Mashina tarjimasi va avtomatik leksik tahlil nazariyasi.
154. Mashina tarjimasida madaniy omillarni qayta ishlab chiqish masalasi.
155. Mashina tarjimasining ijtimoiy va etik jihatlari.
156. Mashina tarjimasi va inson tarjimonlari o‘rtasidagi farqlar.
157. Mashina tarjimasida adaptiv algoritmlar roli.
158. Mashina tarjimasi tizimlarida multimodal tahlil.
159. Mashina tarjimasi sifatini baholashning nazariy modellari.
160. Mashina tarjimasining istiqbollari va cheklovlari.
161. Mashina tarjimasi va professional tarjimon o‘rni o‘rtasidagi muvozanat.
162. Tarjima didaktikasining nazariy asoslarini izohlang.
163. Tarjimon tayyorlash tizimining pedagogik modeli.
164. Tarjima o‘qitish jarayonida kompetensiya yondashuvi.
165. Tarjima amaliyotini o‘rgatishda interaktiv metodlar.
166. Tarjima didaktikasida refleksiya va o‘zini baholash.
167. Tarjima mashg‘ulotlarida autentik matnlardan foydalanish.
168. Tarjima o‘qitish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish.
169. Tarjima amaliy mashg‘ulotlarining nazariy asoslari.
170. Tarjimonlik ta’limida amaliy va nazariy uyg‘unlik.
171. Tarjima o‘qitishda kommunikativ yondashuvning afzalliklari.
172. Tarjimon tayyorlashda axborot texnologiyalarining roli.
173. Tarjima o‘qitish jarayonida baholash tizimi.
174. Tarjima ta’limida sotsiokognitiv yondashuv.
175. Tarjima o‘qitish metodikasi va amaliyot muvofiqligi.
176. Tarjima o‘qitishdagi zamonaviy tendensiyalar.
177. Pragmatik tarjima tushunchasining nazariy asoslari.
178. Tarjima jarayonida nutqiy aktlar nazariyasining o‘rni.
179. Tarjimada kommunikativ maqsad va uning ifodasi.
180. Pragmatik ekvivalentlik tushunchasini izohlang.
181. Tarjima jarayonida intonatsion moslik muammosi.
182. Pragmatik tarjimada madaniy kontekstning o‘rni.
183. Tarjimada kommunikativ niyatni saqlash muammosi.
184. Pragmatik tarjimada kontekstual vositalarni tahlil qiling.
185. Tarjima jarayonida adresant va adresat o‘rtasidagi aloqa.
186. Tarjimon kompetensiyasining tarkibiy qismlari.

187. Lingvistik, madaniy va texnik kompetensiya o‘rtasidagi bog‘liqlik.
188. Tarjimon kompetensiyasini baholash mezonlari.
189. Tarjima jarayonida qaror qabul qilish strategiyalari.
190. Tarjimonning axloqiy va professional mas’uliyati.
191. Tarjimon kompetensiyasining zamonaviy modeli.
192. Qiyosiy tilshunoslik fanining predmeti, obyekti va asosiy vazifalari
192. Qiyosiy, tipologik va kontrastiv tilshunoslik o‘rtasidagi farqlar
193. Tilni qiyosiy o‘rganishning metodologik asoslari
194. Genetik va areal tipologiya tushunchalari
195. Qiyosiy tadqiqotlarda fonetik, morfologik va sintaktik qiyoslashning o‘rni
196. Qiyosiy tahlilda semantiq va pragmatik omillarni o‘rganishning ahamiyati
197. Qiyosiy tilshunoslikda universallik va o‘ziga xoslik (spetsifiklik) tushunchalari
198. O‘zbek tili va boshqa turkiy tillarni qiyosiy tahlil
199. Qiyosiy tahlilda madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushuntiring.
200. Zamonaviy qiyosiy tilshunoslikda kognitiv va funksional yondashuvlarning o‘rni